



O‘ZBEKISTON SHAROITIDA INNOVATSION LOYIHALAR MAQSADLARINI ANIQLASHNING DOLZARB MASALALARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

*Ilmiy rahbar: **Kamilova Anora***

Andijon davlat texnika instituti

“Iqtisodiyot” kafedrası o‘qituvchisi

Ne‘matjonov Asadbek

Andijon davlat texnika instituti

“Iqtisodiyot” yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola O‘zbekiston sharoitida innovatsion loyihalarning maqsadlarini aniqlash bilan bog‘liq dolzarb masalalarni va ularning rivojlanish istiqbollari o‘rganishga qaratilgan. Innovatsion loyihalar mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, ilmiy-texnikaviy salohiyatni rivojlantirish va xususiy sektorni rag‘batlantirishda muhim ahamiyatga ega. Innovatsion loyihalarning samaradorligini oshirish uchun maqsadlarni aniqlashda duch kelinadigan muammolar, jumladan resurs yetishmovchiligi, institutlararo muvofiqlik va investitsiya mexanizmlarining samaradorligi mazkur maqolada batafsil tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: innovatsion loyihalar, maqsadlarni aniqlash, rivojlanish istiqbollari, startaplar, ilmiy-texnikaviy salohiyat.

Kirish. Innovatsiyalar va innovatsion loyihalar bugungi global davr iqtisodiyotida mamlakatlarning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. O‘zbekiston sharoitida ham innovatsion rivojlanish yurt iqtisodiyotining unumdorligini oshirish va yuqori texnologiyali sektorlarni shakllantirish yo‘lida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Innovatsion loyihalarning asosiy maqsadlarini



aniqlash jarayoni mamlakatning ilm-fan, texnologiya, raqamli iqtisodiyot va institutsional infratuzilmasini kompleks tarzda rivojlantirishni talab qiladi [1]. So'nggi yillar mobaynida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida innovatsion siyosat va raqamli transformatsiya yo'nalishlarida bir qator qonun hujjatlar qabul qilindi va amaliy tashabbuslar yo'lga qo'yildi. Eng muhim hujjatlardan biri bu hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish sohasiga kata e'tibor qaratayotganidir. Ushbu say-harakatlar innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash, startaplarni rag'batlantirish, texnoparklar va innovatsion infratuzilmalarni rivojlantirish maqsadlarini belgilab beradi. Strategiyaning asosiy yo'nalishlaridan biri - startaplar va zamonaviy texnologiyalar asosida yaratilgan loyihalarni tijoratlashtirish va ularni bozor sharoitida faoliyat yuritishga yo'naltirishdir. Bu borada innovatsion loyihalarni aniqlash jarayoni ularning iqtisodiyotga ta'siri, bozor talabiga mosligi, eksport salohiyati va xalqaro maydonda raqobatbardosh bo'lishi mezonlari orqali amalga oshiriladi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar bo'yicha innovatsion loyihalar mamlakat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Masalan, 2025-yil 22-oktabrda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan PF-189-sonli Farmon "Sun'iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" innovatsion rivojlanishning muhim bosqichini belgilaydi [2]. Ushbu hujjatga muvofiq, 2026-yilga qadar iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kamida 100 ta sun'iy intellektga asoslangan loyiha tatbiq etilishi rejalashtirilgan. Bu loyihalar nafaqat davlat xizmatlarining samaradorligini oshiradi, balki xususiy sektor, startaplar va ilmiy tadqiqot muassasalari uchun yangi bozor imkoniyatlarini ochadi. Farmon shuningdek 2030-yilgacha AI infratuzilmasiga 1 milliard dollardan ortiq xorijiy investitsiyalar jalb etishni maqsad qilgan.

Innovatsion loyihalar maqsadlarini aniqlashda ijtimoiy va iqtisodiy talablarga javob berish masalasi ham muhimdir. Bozor sharoitidagi talablarni tahlil qilish orqali loyihaning ijtimoiy foydasi, bandlikni oshirish, aholi farovonligini yaxshilash



kabi mezonlar belgilab olinadi [3]. Masalan, sun'iy intellekt bo'yicha hujjatlar doirasida ta'lim sohasida ham innovatsion loyihalar - AI laboratoriyalarini universitetlarda tashkil etish va sun'iy intellekt bo'yicha ta'limni keng joriy etish rejasi belgilangan. Bunday loyiha yosh mutaxassislarini tayyorlashni kuchaytiradi, ularning raqamli texnologiyalar bo'yicha malakasini oshiradi va innovatsion iqtisodiyotning asosiy kuchi bo'lish imkonini yaratadi. Innovatsion loyihalar maqsadlarini aniqlash jarayonida davlat tomonidan yaratiladigan infratuzilmalar ham katta rol o'ynaydi. Prezident tomonidan imzolangan PF-233-sonli Farmon asosida tashkil etilgan "Enterprise Uzbekistan" International Digital Technology Center shunday infratuzilmalardan biridir [4]. Ushbu markaz zamonaviy texnologiyalar sohasida innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashni, xususiyl startaplar uchun qulay investitsiya muhitini yaratishni hamda raqamli iqtisodiyot mahsulotlarini eksport qilishni maqsad qilgan. Bu kabi markazlar innovatsion g'oyalarni tijoratlashtirish va global bozorga chiqishga tayyorlashda muhim funksiyani bajaradi. Shuningdek, innovatsion loyihalarni maqsadli ravishda aniqlashda hukumat va mahalliy boshqaruv organlari tomonidan startaplar va tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etilmoqda. Masalan, mamlakat bo'yilab innovatsion, texnologik parklar va texnopark infratuzilmalari tashkil etilib, ularda yangi loyihalarni ishga tushirish va ularni bozor talabiga moslashtirish bo'yicha treninglar, akseleratsiya dasturlari va mentorlik xizmatlari yo'lga qo'yilmoqda. Bu yo'l xaritalari innovatsion loyihalar maqsadlarini aniqlashda startaplar va kichik biznes subyektlarining salohiyatini ochish imkonini beradi.

Innovatsion loyihalarning rivojlanish istiqbollariidan biri ham davlat-talaba va ilm-fan institutsional ishtirokini kuchaytirishdir [5]. 2030-yilgacha mo'ljallangan Ilm-fan, texnologiya va innovatsiyalarni rivojlantirish konsepsiyalari doirasida ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, ilmiy loyihalarni tijorat asosida rivojlantirish mexanizmlari takomillashtirilmoqda. Bu jarayon innovatsion g'oyalarni bozor



sharoitida muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun zarur bo'lgan institutlararo hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Innovatsion loyihalar maqsadlarini aniqlashda xalqaro hamkorlikning o'rnini ham katta. O'zbekiston xalqaro kompaniyalar va investorlar bilan hamkorlik orqali yangi texnologiyalarni joriy etish va innovatsion ekotizimni mustahkamlashga intilmoqda. Bu esa rivojlanish istiqbollari uchun xorijiy kapital, tajriba almashinuvi va global bozor segmentlariga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Biroq innovatsion loyihalarni aniqlash bilan bog'liq dolzarb masalalardan biri ham resurslar yetishmovchiligi bo'lishi mumkin. Innovatsiyalarni amalga oshirish uchun yetarli moliyaviy resurslar, malakali kadrlar va zamonaviy ilmiy infratuzilma talab etiladi. Shu bois davlat tomonidan innovatsion rivojlanish strategiyalariga yo'naltirilgan budjet mablag'lari ajratilishi, investitsiyalar jalb etilishi va xalqaro fondlar bilan hamkorlik mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etdi.

Innovatsion loyihalar mamlakat iqtisodiyotining zamonaviy va raqobatbardosh bo'lishi uchun muhim omillardan biridir [6]. O'zbekiston sharoitida innovatsion loyihalarni aniqlash va ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish maqsadlarini belgilash jarayoni iqtisodiy samaradorlik, texnologik taraqqiyot va ijtimoiy farovonlikni ta'minlash yo'lida ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Biroq bu jarayon samarador bo'lishi uchun bir qator dolzarb muammolarni yengish talab etiladi. Xususan, resurs yetishmovchiligi, institutlararo muvofiqlik va investitsiya mexanizmlarining cheklangan samaradorligi kabi omillar innovatsion loyihalarning maqsadlarini aniq belgilash va ularni amalga oshirish jarayonida asosiy to'siqlardan biri bo'lib qolmoqda.

Birinchidan, innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslar, ayniqsa moliyaviy mablag'lar yetishmovchiligi muhim muammo bo'lib qolmoqda. Mamlakatda kerakli texnologiyalar, startaplar va ilmiy tadqiqotlar uchun yetarli investitsiyalar doimiy ravishda jalb etilishi lozim, ammo bu jarayon hamon to'liq samarali emas. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston innovatsion



investitsiyalarning kompleks ekspertizasi va moliyaviy resurslarning yetishmasligi bilan bog‘liq muammolarga duch kelmoqda, bu esa loyihalarni samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy bazaning yetishmasligiga olib kelmoqda. Resurslarning cheklanganligi innovatsion g‘oyalarni tijoratlashirish va yuqori texnologiyali startaplarni qo‘llab-quvvatlash jarayonini murakkablashtirmoqda, natijada yosh tadbirkorlar va ilmiy jamoalar o‘z loyihalarini raqamli va texnologik infratuzilmaga aylantirish imkoniyatidan cheklanishmoqda. Mavjud resurslar yetishmovchiligi, jumladan moliyaviy va inson kapitali resurslari, har bir innovatsion loyiha uchun aniq maqsad va yo‘nalishlarni belgilashni murakkablashtiradi [7]. Resurs yetishmovchiligi gender va hududlararo tengsizlik darajasini oshirishi mumkin, chunki ayrim hududlar va sektorlar innovatsion investitsiyalarni jalb etishda boshqalarga nisbatan ko‘proq imkoniyatga ega bo‘ladi. Resurslarning noto‘g‘ri taqsimlanishi, shuningdek, samaradorligi past bo‘lgan loyihalarga mablag‘ yo‘naltirilishiga olib keladi, bu esa innovatsion jarayonning umumiy rentabelligini pasaytiradi. Innovatsion loyihalarning samaradorligini oshirish uchun resurslarni samarali boshqarish va ularni muhim yo‘nalishlarga yo‘naltirish mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

Ikkinchidan, institutlararo muvofiqlik masalalari innovatsion loyihalarni amalga oshirishda yana bir dolzarb to‘siqdir. Innovatsion loyihalar turli sohalar — ilm-fan, sanoat, ta’lim, iqtisodiyot va davlat boshqaruvi organlari o‘rtasidagi hamkorlikni talab qiladi [8]. Ammo hozirgi innovatsion tizimda institutlararo integratsiya hamon yetarli darajada emas. Institutlararo muvofiqlik masalasi innovatsiya tizimi subyektlari o‘rtasidagi axborot almashish, birgalikda strategik rejalashtirish va resurslarni muvofiqlashtirishni murakkablashtiradi. O‘z navbatida, bu hol innovatsion loyihalarni maqsadlarini aniq belgilash va ularni samarali amalga oshirish jarayonini sekinlashtiradi. Institutlararo muvofiqlikning yetishmasligi, odatda davlat siyosati, xususiy sektor va ilmiy muassasalar o‘rtasida hamkorlik mexanizmlarining zaifligi bilan ham bog‘liq bo‘lib, bu innovatsion faoliyat sohasida



kompleks yechimlar ishlab chiqishni qiyinlashtiradi. Shuningdek, investitsiya mexanizmlarining samaradorligi ham innovatsion loyihalarni maqsadlarini aniqlash va ularni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Inson kapitali va texnologik infratuzilma investitsiyalari bilan bir qatorda, innovatsion loyihalar uchun xorijiy investitsiyalarni jalb etish muhim ahamiyatga ega[9]. Shu bilan birga, O'zbekiston hukumatining investitsiya siyosati innovatsiyalarni rivojlantirish uchun investitsiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan, jumladan Prezident Mirziyoyevning "O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida investitsiya muhitini yaxshilash yo'lida chora-tadbirlar belgilangan. Ushbu strategiya investitsiyalarni jalb qilish, ularning samaradorligini oshirish va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish bo'yicha aniq yo'nalishlarni belgilaydi. Biroq, cheklangan moliyaviy mexanizmlar, jumladan loyiha moliyalashtirish va investitsiyalarni kompleks boshqarish tizimining yetarlicha rivojlanmaganligi, innovatsion loyihalarning samaradorligini past darajada ushlab turmoqda. Xususan, loyihaviy moliyalashtirish va sinditsiyali kreditlar kabi zamonaviy investitsiya mexanizmlari O'zbekiston sharoitida yetarli darajada keng qo'llanmayotgani, loyihalarni amalga oshirish jarayonida sarmoyalarni jalb etish samaradorligini cheklaydi. Innovatsion investitsiyalarni jalb etish jarayonini yaxshilash uchun moliyaviy instrumentlarning diversifikatsiyasini oshirish, ventur kapitalni rivojlantirish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish zarur. Shu bois, innovatsion loyiharning maqsadlarini aniqlash jarayoni uchun samarali investitsiya mexanizmlari muhim ahamiyatga ega bo'lishi kerak. Samarali investitsiya mexanizmlari loyihalarning bozor talablariga mosligini ta'minlaydi, iqtisodiyotning ustuvor sektorlarini qo'llab-quvvatlaydi va innovatsion faoliyatning uzoq muddatli barqarorligini kafolatlaydi [10]. Bu yo'nalishda davlatning rolini kuchaytirish, soliq chegirmalari, grantlar va investitsiyalar uchun qo'shimcha rag'batlar tizimini joriy etish orqali innovatsion loyihalarning samaradorlarini oshirish mumkin.



O'zbekistonning innovatsion faoliyat va startap ekotizimi statistikasi

1-jadval

№	Ko'rsatkich	Qiymat
1	Global Innovation Index (GII)	79-o'rin (139 davlat ichida)
2	Resurs va investitsiya yo'nalishida o'sish belgisi	69-o'rin
3	Innovatsion natijalar (mahsulot/tehnologiyalar) darajasi ko'rsatkichi	92-o'rin
4	Startaplar soni (faol ekotizim)	400 dan ortiq
5	Venchur sarmoya hajmi	\$69.5 mln dan ko'proq
6	Venchur fondlar aktivlari	\$136 mln dan ko'proq
7	IT Park a'zolari	1,552 ta kompaniya
8	Startup ekotizim Global Rank	98-o'rin (100 ta)
9	Raqamli iqtisodiyot foydalanuvchilari	27 mln internet foydalanuvchi

Manba: Muallif ishlanmasi

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston sharoitida innovatsion loyihalarning samaradorligini oshirish masalalarini tahlil qilishda eng dolzarb indikatorlardan biri Global Innovation Index (GII) hisoblanadi. 2025-yil uchun O'zbekiston 139 ta davlat orasida 79-o'rinni egallagan (1-jadval). Bu raqam mamlakatning innovatsion salohiyati rivojlanayotganini ko'rsatadi, ammo innovatsion natijalar bo'yicha 92-o'rinda bo'lishi, loyihalarning bozorga chiqish va texnologik mahsulotlarni yaratishdagi samaradorlikning hali mukammal emasligini bildiradi. Ushbu



ko'rsatkichlar innovatsion loyihalarni aniqlash jarayonida resurslar va infratuzilma yetishmovchiligi muammolarini aks ettiradi.

Startaplar soni va ularning investitsiyalari bo'yicha statistik ma'lumotlar ham innovatsion tizimning holatini aks ettiradi. 2024-yilda O'zbekiston bo'yicha faol startaplar soni 400 dan ortiqni tashkil etadi. Shu bilan birga, venchur sarmoya hajmi 2020-yildagi \$0,3 milliondan 2024-yilda \$69,5 millionga yetgan, ya'ni 230 barobar o'sish kuzatilgan. Bu raqamlar innovatsion loyihalarga moliyaviy resurslar jalb etishda sezilarli ijobiy tendensiyaning ko'rsatadi. Biroq, venchur fondlar aktivlari hali ham \$136 million atrofida bo'lib, startap ekotizimini kengaytirish va loyihalarning samaradorligini oshirish uchun qo'shimcha investitsiyalar zarurligini bildiradi.

IT Park infratuzilmasi orqali 1,552 ta kompaniyaning faoliyati, shuningdek, raqamli iqtisodiyot foydalanuvchilari sonining 27 million atrofida bo'lishi innovatsion loyihalarni amalga oshirishda ijtimoiy va texnologik infratuzilma mavjudligini ko'rsatadi. IT Park va shunga o'xshash innovatsion markazlar startaplar va yuqori texnologiyali kompaniyalarni qo'llab-quvvatlash, ularni bozor talablariga moslashtirish va moliyaviy rag'batlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, global startup ekotizim indeksida 98-o'rinni egallash, O'zbekistonning innovatsion ekotizimi tez rivojlanayotganini, ammo hali to'liq yetuk emasligini bildiradi.

Jadvaldagi ma'lumotlar innovatsion loyihalarning samaradorligini oshirishda uch asosiy muammoga e'tibor qaratadi. Birinchi muammo – resurs yetishmovchiligi. Moliyaviy resurslar, malakali kadrlar va ilmiy infratuzilma yetishmovchiligi innovatsion loyihalarni maqsadlariga erishishida to'siq bo'lib qolmoqda. Startaplar va innovatsion kompaniyalar tez rivojlanayotgan bo'lsa-da, yetarli venchur investitsiyalari va moliyaviy qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi loyihalarning keng ko'lamda amalga oshirilishini cheklaydi.

Ikkinchi muammo – institutlararo muvofiqlik masalasi. Innovatsion loyihalar bir vaqtning o'zida ilmiy muassasalar, xususiy sektor va davlat organlari bilan



hamkorlikni talab qiladi. Ammo hozirgi tizimda institutlararo integratsiya yetarli darajada rivojlanmagan. Axborot almashish, resurslarni muvofiqlashtirish va strategik rejalashtirishdagi cheklovlar innovatsion loyihalarning samaradorligini pasaytiradi. Bu hol davlat va xususiy sektor hamkorligini mustahkamlash, shuningdek, ilmiy-tadqiqot institutlari bilan startaplar o'rtasida mentorlik va akseleratsiya dasturlarini kengaytirishni talab qiladi.

Uchinchi muammo – investitsiya mexanizmlarining samaradorligi. Jadvalda venchur fondlar va sarmoya hajmining ko'rsatilishi innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarining rivojlanayotganini, ammo yetarli darajada diversifikatsiyalashmaganini ko'rsatadi. Samarali investitsiya mexanizmlari startaplar va innovatsion kompaniyalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ularning bozor talablariga moslashishi va iqtisodiyotning ustuvor sektorlarini rivojlantirish imkonini yaratadi. Shu bois, davlat siyosati doirasida soliq imtiyozlari, grantlar va xususiy investorlarni rag'batlantirish mexanizmlari kengaytirilishi zarur. Shuni ta'kidlash lozimki, innovatsion loyihalarning samaradorligini oshirish uchun yuqoridagi muammolarni hal qilish bilan birga, strategik rejalashtirish va monitoring tizimlarini rivojlantirish, texnologik transfer va xalqaro hamkorlikni kengaytirish muhim hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston sharoitida innovatsion loyihalarning samaradorligini oshirish jarayoni kompleks va ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Jadval tahlilidan ko'rinib turibdiki, mamlakat innovatsion ekotizimi tez rivojlanayotgan bo'lsa-da, bir qator muammolar mavjud: resurs yetishmovchiligi, institutlararo muvofiqlikning cheklanganligi va investitsiya mexanizmlarining yetarli darajada diversifikatsiyalashmaganligi. Bu omillar innovatsion loyihalarni maqsadlariga yetkazish va ularni global bozor sharoitida muvaffaqiyatli amalga oshirishni murakkablashtiradi. Shu bilan birga, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan strategik tashabbuslar, IT Park va startap ekotizimlarini rivojlantirish, venchur investitsiyalarni jalb qilish kabi chora-tadbirlar



innovatsion loyihalarning potensialini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuning uchun innovatsion loyihalarni samarali amalga oshirish uchun resurslarni samarali boshqarish, institutlararo hamkorlikni mustahkamlash va investitsiya mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Faqat shu yo'l bilan O'zbekistonning innovatsion iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish va global raqobatbardoshlikni oshirish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Mamatov, T.T. Jo'rayev, Erkayev A.N. Innovasion iqtisodiyot. –T.: 2019, 456 bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 22.10.2025 yildagi PF-189-son
3. A.Taniyev. "Innovatsion iqtisodiyot". Darsik. Samarqand: SamDU nashri, 2020 y.– 460 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.10.2022 yildagi PF-233-son
5. Kobulov I., Sh E. DIGITAL ECONOMY AND LABOR MARKET: NEW PROFESSIONS AND CAREER OPPORTUNITIES //Экономика и социум. – 2025. – №. 2-1 (129). – С. 303-305.
6. Shavkatbek E., Muxlisa T. THE NEED FOR FOREIGN COUNTRIES TO STUDY EXPERIMENTS IN THE DEVELOPMENT OF AN INNOVATIVE ECONOMY //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – Т. 37. – №. 4. – С. 219-223.
7. Абдуллаев Б., Эргашев Х. ИННОВАЦИОННОЕ МЫШЛЕНИЕ В УПРАВЛЕНИИ ПРОИЗВОДСТВАМИ //Инновационные технологии на транспорте: образование, наука, практика. – 2017. – С. 246-249.



8. Jasurbek G., Shavkatbek E. INNOVATION AND COMPETITIVENESS IN LIGHT INDUSTRY //Modern education and development. – 2025. – Т. 19. – №. 4. – С. 3-7.

9. Baxodir A. INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR //Management, Marketing and Finance. – 2025. – Т. 2. – №. 1. – С. 130-138.

10. Mohinur A., Shavkatbek E. INDUSTRY 4.0 AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE: INNOVATIVE SOLUTIONS IN MANUFACTURING PROCESSES //Modern education and development. – 2025. – Т. 19. – №. 3. – С. 637-643.